

**DINIY MAZMUNDAGI MATERIALLARNI QONUNGA XILOF
RAVISHDA TAYYORLASH, SAQLASH, OLIB KIRISH YOKI TARQATISH
JINOYATLARI UCHUN JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH**

Qilichova Kamola Luqmonxon qizi

*O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi Oliy ta'limdan keyinigi
ta'lim fakulteti tayanch doktorantura mustaqil izlanuvchisi*

E-mail: kamolakilichova@gmail.com

Киличова Камолы Лукмонхан кизи.

*Является независимым докторантом факультета
высшего образования МВД Республики Узбекистан.*

E-mail: kamolakilichova@gmail.com

**ПОВЫШЕННАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЯ,
СВЯЗАННЫЕ С НЕЗАКОННЫМ ПРИГОТОВЛЕНИЕМ, ХРАНЕНИЕМ,
ВВОЗОМ ИЛИ РАСПРОСТРАНЕНИЕМ РЕЛИГИОЗНЫХ МАТЕРИАЛОВ**

**ENHANCED LIABILITY FOR THE CRIMES OF ILLEGAL PREPARATION,
STORAGE, IMPORTATION OR DISTRIBUTION OF RELIGIOUS
MATERIALS**

Annotatsiya: Diniy mazmundagi materiallar tarqatilishi dunyo miqyosida jiddiy masalalardan biri bo'lib, u diniy ekstremizm va radikallashuv tahdidlarini oldini olish nuqtai nazaridan muhimdir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida diniy materiallarni tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish bo'yicha javobgarlikni belgilashda aniq va samarali mexanizmlarni joriy etish zarurati tug'ilmoqda. Diniy mazmundagi materiallar tarqatilishi va ulardan noqonuniy foydalanish zamonaviy jamiyatda ko'plab huquqiy va ijtimoiy muammolarni yuzaga keltiradi. Ekstremistik g'oyalarni targ'ib qiluvchi materiallar radikalizm, ijtimoiy nizolar va xavfsizlikka tahdidlarni kuchaytiradi. Shu sababli, ushbu yo'nalishda qonunchilikni takomillashtirish va uni samarali qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining ushbu masalaga oid qonunchilik bazasi va uni rivojlantirish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Аннотация: Распространение религиозного контента является одной из самых серьезных проблем в мире и важна с точки зрения предотвращения угроз религиозного экстремизма и радикализации. В связи с этим возникает необходимость внедрения в законодательство Республики Узбекистан четких и эффективных механизмов определения ответственности за изготовление, хранение, ввоз или распространение религиозных материалов. Распространение религиозных материалов и их незаконное использование создают множество правовых и социальных проблем в современном обществе. Экстремистские материалы способствуют радикализации, социальным конфликтам и угрозам

безопасности. Поэтому важно совершенствовать законодательство и его эффективное применение в этом направлении. В данной статье рассматривается правовая база Республики Узбекистан по данному вопросу и пути ее развития.

Abstract: The dissemination of religious content is one of the most serious issues in the world, and it is important from the point of view of preventing the threats of religious extremism and radicalization. In this regard, there is a need to introduce clear and effective mechanisms in the legislation of the Republic of Uzbekistan for determining responsibility for the preparation, storage, import or distribution of religious materials. The distribution of religious materials and their illegal use creates many legal and social problems in modern society. Extremist material promotes radicalization, social conflict, and threats to security. Therefore, it is important to improve the legislation and its effective application in this direction. This article examines the legal framework of the Republic of Uzbekistan on this issue and ways of its development.

Kalit so'zlar: diniy ekstremizm, siyosiy-huquqiy jihatlar, profilaktika, hamkorlik, terrorizmga qarshi kurashish.

Ключевые слова: религиозный экстремизм, политико-правовые аспекты, профилактика, сотрудничество, борьба с терроризмом.

Key words: religious extremism, political and legal aspects, prevention, cooperation, fight against terrorism.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT bosh assambleyasining 72 sessiyasidagi nutqida "Biz butun jahon hamjamiyatiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa deb hisoblaymiz. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamligining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz"⁵² deb ta'kidlagan.

Bugungi kunda ekstremistik va xalqaro terrorchilik tashkilotlari diniy aqidalar niqobi ostida yoshlarni zo'ravonlikka, milliy o'zligini, madaniy-ma'rifiy va oilaviy qadriyatlarini yo'qotishga undash yo'li bilan jamiyatda zo'ravonlik va radikal qarashlarni tarqatishni davom ettirmoqda. Bularning barchasi fuqarolarni ekstremistik va terrorchilik tashkilotlari safiga jalb qilish uchun shart-sharoit yaratmoqda.⁵³

1. Mavzuning dolzarbligi va muammolari. Bugungi kunda dunyo bo'ylab diniy ekstremizm va radikalizm tahdidlari kuchaydi. Bu jarayon internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan noqonuniy diniy mazmundagi materiallar tufayli yanada murakkablashmoqda. O'zbekiston ham ushbu muammoga qarshi kurashni kuchaytirish yo'lida qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 244-3-moddasida diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash yoki tarqatish jinoyati uchun javobgarlik belgilangan. Biroq, ushbu

⁵² <https://president.uz/oz/lists/view/1063>

⁵³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.07.2021 yildagi PF-6255-son "2021 — 2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", <https://lex.uz/docs/-5491626>

moddaniy amalda qo'llanilishi bir qancha murakkabliklarga ega: Shu bilan birga, amaliyotda ushbu normalarning qo'llanilishi ko'p hollarda aniq mezonlar yo'qligi sababli murakkablik tug'dirmoqda. Xususan:

- Qonunchilikda "diniy mazmun" va "noqonuniylik", "qonunga xiloflik" tushunchalari yetarlicha aniq belgilab berilmaganligi;
- qonunga xilof materiallarni "saqlash" va "tarqatish" chegaralarini belgilashdagi muammolar;
- diniy ekstremizmga aloqador bo'lmagan diniy materiallarni ham noqonuniy deb baholash ehtimoli mavjudligi.

Texnologik taraqqiyot ta'siri: Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan materiallarni nazorat qilish murakkab.

Huquqiy tartibga solishdagi nomutanosiblik: Noqonuniy materiallarga qarshi choralarining samarasizligi ayrim hollarda ekstremizm tarqalishiga imkon yaratilayotganligini ko'rsatadi.

2. Xalqaro tajriba

Xalqaro miqyosda diniy mazmundagi materiallarni nazorat qilishda bir qator mamlakatlar amaliyoti e'tiborga loyiqdir: AQSh davlatida so'z va din erkinligi Konstitutsiya tomonidan kafolatlangan bo'lsa-da, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi yoki radikal diniy materiallarga qarshi qat'iy choralar ko'riladi. Internetda noqonuniy materiallarni tarqatishni kuzatish uchun maxsus monitoring tizimlari mavjud. Rossiya federatsiyasida esa ekstremistik materiallar ro'yxati tuzilgan bo'lib, bunday materiallarni tarqatish jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Turkiya davlatida diniy mazmundagi materiallarni tarqatishda davlat ruxsati talab etiladi. Ruxsatsiz diniy materiallarni tarqatish ma'muriy va jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Ushbu tajriba ko'rsatib turibdiki, diniy mazmunni qonuniy va noqonuniyga ajratish uchun aniq mexanizmlar zarur.

Rivojlangan 10 ta dunyo davlatlarining jinoiy qonunchiligida mavjud bo'lgan O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga o'xshash normalarning qisqacha mazmuni ko'rishingiz mumkin:

1. AQSh: *Patriot Act (2001)*

Ushbu qonun ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash maqsadida qabul qilingan. Terroristik mazmundagi materiallarni internet orqali tarqatish jinoyat hisoblanadi. Ushbu qonunga ko'ra, davlat organlari bunday faoliyatni monitoring qilish va noqonuniy harakatlarni oldini olish uchun keng vakolatga ega.

Jazolar: 10 yilgacha qamoq jazosi va jarima.

2. Rossiya: *Jinoyat kodeksi, 282-moddasi*

Modda mazmuni: Millatlararo, ijtimoiy yoki diniy adovatni qo'zg'atadigan materiallarni tayyorlash, saqlash yoki tarqatish jinoyat hisoblanadi. Ushbu moddada ekstremistik faoliyatni moliyalashtirish, ommaviy ravishda chaqiriqlar qilish va bunday materiallarni chop etish uchun javobgarlik ko'zda tutilgan.

Jazolar: 6 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish.

3. Germaniya: Strafgesetzbuch (StGB), 86-modda

Modda mazmuni: Nafrat uygʻotuvchi yoki zoʻravonlikni targʻib qiluvchi materiallarni tarqatish. Shu jumladan, natsistik va boshqa ekstremistik materiallarni chop etish yoki tarqatish taqiqlanadi. Bu qonun nafaqat ishlab chiqaruvchilarni, balki bunday materiallarni saqlovchilarni ham jazolaydi.

Jazolar: 3 yilgacha qamoq jazosi yoki katta miqdorda jarima.

4. Fransiya: Jinoyat kodeksi, 421-2-5-moddasi

Modda mazmuni: Terrorizmni targʻib qiluvchi diniy materiallarni ommaviy tarqatish, jumladan internet orqali, noqonuniy hisoblanadi. Modda ekstremistik materiallarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanganlik uchun ham javobgarlik belgilaydi.

Jazolar: 5 yildan 7 yilgacha qamoq jazosi.

5. Buyuk Britaniya: Terrorism Act (2006)

Modda mazmuni: Ekstremistik yoki zoʻravonlikni targʻib qiluvchi kontentni ommaviy tarqatish va diniy adovatni qoʻzgʻatish jinoyat hisoblanadi. Ushbu qonun ekstremistik materiallarni targʻib qiluvchi veb-saytlar va nashrlarni yopish huquqini ham beradi.

Jazolar: 15 yilgacha qamoq jazosi.

6. Hindiston: Information Technology Act (2000), 69A-moddasi

Modda mazmuni: Internet orqali ekstremistik diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash va tarqatish taqiqlanadi. Davlat ekstremistik materiallarni blokirovka qilish huquqiga ega.

Jazolar: 7 yilgacha qamoq jazosi.

7. Turkiya: Jinoyat kodeksi, 216-moddasi

Modda mazmuni: Diniy, irqiy yoki milliy adovatni qoʻzgʻatuvchi har qanday materiallarni tarqatish jinoyat hisoblanadi. Ushbu moddaga binoan, nafaqat materiallarni tarqatish, balki ularni ishlab chiqarish va ommaviy joylashtirish ham jazolanadi.

Jazolar: 6 oygacha qamoq jazosi va jarima.

8. Xitoy: Cybersecurity Law (2017)

Modda mazmuni: Internetda noqonuniy diniy va ekstremistik materiallarni tarqatish qatʼiyan taqiqlanadi. Davlat organlari bunday kontentni aniqlash uchun monitoring qilish huquqiga ega.

Jazolar: 10 yilgacha qamoq jazosi.

9. Saudiya Arabistoni: Counter-Terrorism Law (2014)

Modda mazmuni: Terrorizmni qoʻllab-quvvatlovchi va radikal diniy mazmundagi materiallarni ishlab chiqarish yoki tarqatish jinoyat hisoblanadi. Bunday materiallarni saqlash ham jinoyat sifatida koʻrib chiqiladi.

Jazolar: 20 yilgacha qamoq jazosi.

10. Indoneziya: Electronic Information and Transactions Law (2008)

Modda mazmuni: Internet orqali diniy ekstremizmni targʻib qiluvchi materiallarni tarqatish taqiqlanadi. Qonun diniy zoʻravonlikni targʻib qiluvchi har qanday kontentni noqonuniy hisoblaydi. Jazolar: 10 yilgacha qamoq jazosi.

3. Takomillashtirish boʻyicha takliflar

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

O'zbekistonda mazkur jinoyat turi bo'yicha javobgarlikni takomillashtirish uchun quyidagilarni taklif etish mumkin:

1. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish:

- "Diniy mazmun" va "noqonuniy material" tushunchalarini aniq belgilash,
- Ekstremistik, terroristik mazmundagi materiallarning yagona ro'yxatini ishlab chiqish.

2. Barvaqt oldini olish hamda profilaktik choralar:

- Diniy materiallarni davlat ekspertizasidan o'tkazish tartibini yanada soddalashtirish,
- Dinshunoslik va huquqshunoslik sohasida ekspertlarni ko'paytirish.
- Diniy sohada ma'rifiy ishlarni kuchaytirish va ijtimoiy ongini oshirish.
- Yoshlar o'rtasida diniy ekstremizmning zararini tushuntiruvchi dasturlarni kengaytirish

3. Javobgarlik choralari:

Jinoyatni takroran sodir etgan shaxslar uchun og'irlashtiruvchi holatlarni belgilash,

4. Axborot texnologiyalaridan foydalanish:

- Internet orqali tarqatilayotgan diniy mazmunni monitoring qilishning samarali tizimini joriy etish,
- Sun'iy intellekt va axborot xavfsizligi vositalarini rivojlantirish.

Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish jinoyatiga qarshi kurash huquqiy tizimning barqarorligi va jamiyat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Qonunchilikning zamonaviy talablarga moslashtirilishi, xalqaro tajribani inobatga olish va texnologik imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali ushbu muammoga qarshi kurashni samarali tashkil etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.—Toshkent: "Adolat" nashriyoti, 2023 yil. Jinoyat kodeksi 244-3-moddasi: Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, saqlash yoki tarqatish bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlik. Betlar: 362–364.

2. AQSh Patriot Act (2001). AQSh Kongressi tomonidan qabul qilingan qonun.

Patriot Act terorchil faoliyatni qo'llab-quvvatlash yoki ekstremistik materiallarni tarqatishga oid javobgarlikni belgilaydi. Manba: AQSh Adliya vazirligining rasmiy sayti (www.justice.gov).

3. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi. — Moskva: "Yuridik fan" nashriyoti, 2021 yil. 282-modda: Ekstremizm va millatlararo adovatni qo'zg'atuvchi materiallarga oid javobgarlik. Betlar: 312–315.

4. Germaniya Jinoyat kodeksi (Strafgesetzbuch, StGB). 86-modda: Ekstremistik va nafrat uyg'otuvchi materiallarni tarqatish bo'yicha javobgarlik. Betlar: 145–147. Manba: Germaniya Federativ Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy veb-sayti (www.bmj.de).

5. Fransiya Jinoyat kodeksi.421-2-5-moddasi: Terrorizmni targ'ib qiluvchi materiallarga oid huquqbuzarliklar.Manba: Fransiya hukumati rasmiy huquqiy portali (www.legifrance.gouv.fr).
6. Buyuk Britaniya Terrorism Act (2006).Terrorizm va ekstremistik materiallar tarqatilishiga qarshi kurash bo'yicha qonun.Jazolar: 15 yilgacha qamoq jazosi.Manba: Buyuk Britaniya hukumati rasmiy qonunchilik portali (www.legislation.gov.uk).
7. Hindiston Information Technology Act (2000).69A-modda: Internetda noqonuniy va ekstremistik materiallarni tarqatish bo'yicha javobgarlik.Manba: Hindiston Adliya vazirligi (www.meity.gov.in).
8. Turkiya Jinoyat kodeksi.216-moddasi: Diniy va milliy adovatni qo'zg'atadigan materiallarga oid qonunchilik.Manba: Turkiya Adliya vazirligining rasmiy sayti (www.adalet.gov.tr).
9. Xitoy Cybersecurity Law (2017).Ekstremistik materiallarni internet orqali tarqatishga oid javobgarlik.Manba: Xitoy hukumati rasmiy nashrlari.
10. Saudiya Arabistoni Counter-Terrorism Law (2014).Terrorizmni targ'ib qiluvchi diniy mazmundagi materiallarga oid qonunchilik.Manba: Saudiya Arabistoni Ichki ishlar vazirligi (www.moi.gov.sa).
11. Indoneziya Electronic Information and Transactions Law (2008).Internetda diniy ekstremizmga oid materiallarni tarqatish bo'yicha javobgarlik.Manba: Indoneziya huquqiy portali (www.bphn.go.id).
12. BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. — Nyu-York: BMT, 1948 yil.
18-modda: Din va e'tiqod erkinligi. Manba: BMTning rasmiy veb-sayti (www.un.org).
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekstremizmga qarshi kurashish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. Toshkent: Prezident matbuot xizmati, 2022. — 3-5-betlar.
14. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948 yil). BMT nashri. — 19-moddasi, 8-bet.
15. Turkiya Respublikasining din erkinligini ta'minlash to'g'risidagi qonunlar. Anqara: "Yuridik tadqiqotlar markazi", 2020. — 75-80-betlar.
16. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining qarorlari. Toshkent: "Adolat", 2023. — 45-50-betlar.
17. S.V. Borodin. "Ekstremizmga qarshi kurash huquqiy asoslari." Moskva: "Yuridik fan", 2019. — 123-130-betlar.
18. Turkiya Respublikasining din erkinligini ta'minlash qonuni. — Anqara: "Yuridik tadqiqotlar markazi", 2020. — 75-80-betlar.
19. S.V. Borodin. Ekstremizmga qarshi kurash huquqiy asoslari. — Moskva: "Yuridik fan", 2019. — 123-130-betlar.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.07.2021 yildagi PF-6255-son " 2021 — 2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida",
<https://lex.uz/docs/-5491626>